



## FARG'ONA VILOYATIIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot  
2023- yil yanvar-avgust*






## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023-yil 1-sentabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **8439** tani tashkil etib, 2022- yil 1- sentabr nisbatan **1410** taga kamaygan (o'sish sur'ati **85,7** %). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **154** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **8285** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTLar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

### Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **14 944,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **106,8** % ni tashkil etdi.

Shujumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **1 261,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **110,3** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **13 682,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **106,5** %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 259,0** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **106,6** %) tashkil etdi.

# CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami, mlrd. so'm	2022-yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2022-yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022-yil- ning mos davriga nisbatan, foizda
<b>Farg'na viloyati</b>	<b>14 944,5</b>	<b>106,8</b>	<b>1 261,6</b>	<b>110,3</b>	<b>13 682,9</b>	<b>106,5</b>
<b>Shaharlar</b>						
Farg'ona	2861,0	109,7	374,5	94,2	2486,5	112,5
Qo'qon	2736,1	109,2	201,9	133,3	2534,2	107,6
Quvasoy	253,1	104,3	18,4	58,1	234,7	111,3
Marg'ilon	2217,9	108,0	48,8	123,3	2169,1	107,7
<b>Tumanlar</b>						
Oltiariq	512,2	101,0	32,9	97,5	479,3	101,3
Qo'shtepa	367,7	104,4	6,7	191,8	361,0	103,5
Bag'dod	376,5	102,7	11,9	114,4	364,6	102,4
Buvayda	661,7	107,6	18,0	85,1	643,7	108,4
Beshariq	561,6	106,8	13,7	105,8	548,0	106,8
Quva	767,1	103,8	14,9	81,5	752,2	104,4
Uchko'prik	1194,2	108,9	457,3	125,1	736,9	100,7
Rishton	421,4	103,8	14,2	105,5	407,2	103,7
So'x	158,4	100,5	2,4	103,1	156,0	100,4
Toshloq	318,7	106,0	5,9	109,9	312,8	105,9
O'zbekiston	311,1	101,1	12,2	117,2	299,0	100,6
Farg'ona	393,9	101,0	6,7	108,7	387,2	100,9
Dang'ara	344,1	102,4	10,2	103,1	333,9	102,4
Furqat	224,7	101,4	5,2	115,2	219,5	101,1
Yozyovon	263,0	101,3	5,8	89,5	257,2	101,6

2023-yilning yanvar-avgust oylarida 2022-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan viloyatning Farg'ona sh (**109,7** %), Qo'qon sh (**109,2**) va Uchko'prik (**108,9**) tumanida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


## YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi  
(yanvar-avgust, mlrd.so'm)



So'nggi **6 yillikda** chakan savdo Tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda yanvar-avgust oylarida kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan **109,4 %** ni yoki **12 608,2** mlrd. so'mni tashkil qildi.

### Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida (foizda)



■ (2022-yil, 2023-yil yanvar-avgust oylari)

2023- yilning yanvar-avgust oylarida o'sish sur'ati **106,8 %** ni tashkil qildi.



**JAMI**  
mlrd. so'm

**Jamiga nisbatan tovar aylanmasi ulushi (foizda)**

Farg'ona viloyati	JAMI mlrd. so'm	Jamiga nisbatan tovar aylanmasi ulushi (foizda)
Farg'ona sh.	2861,0	19,1
Qo'qon	2736,1	18,3
Quvasoy	253,1	1,7
Marg'ilon	2217,9	14,8
<b>tumanlar</b>		
Oltiariq t.	512,2	3,4
Qo'shtepa	367,7	2,5
Bag'dod	376,5	2,5
Buvayda	661,7	4,4
Beshariq	561,6	3,8
Quva	767,1	5,1
Uchko'prik	1194,2	8,0
Rishton	421,4	2,8
So'x	158,4	1,1
Toshloq	318,7	2,1
O'zbekiston	311,1	2,1
Farg'ona	393,9	2,6
Dang'ara	344,1	2,3
Furqat	224,7	1,5
Yozyovon	263,0	1,8

## Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)

**Eng yuqori hajm, % da**



**1** Farg'ona – 19,1

**2** Qo'qon – 18,3

**3** Marg'ilon – 14,8

**Eng quyi hajm, % da**



**1** So'x – 1,1

**2** Furqat – 1,5

**3** Quvasoy – 1,7

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Farg'ona shaxari **19,1 %** bilan **2 861,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa, So'x tumani **1,1 %** bilan **158,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda kamayish kuzatildi.


## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **13 682,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022 yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **6,5 %** ga ko'paydi Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **91,6 %** ni tashkil etdi.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atga ega hududlar (foizda)




### Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **110,3 %** ga o'sdi va **1 261,6** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **8,4 %** ulushiga to'g'ri keldi.

## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha **So'x (98,5 %)** **Farg'ona (98,3 %)** va **Toshloq (98,2 %)** tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo Tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **8,4 %** ni tashkil etib, eng katta ulush **Uchko'prik tumani (38,3 %)**, **Farg'ona (13,1 %)** va **Qo'qon (7,4 %)** shaharlarida kuzatildi.

## AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

### Hududlar kesimida ma'lumot


	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
<b>Farg'na viloyati</b>	<b>3 740,3</b>	<b>104,6</b>
<b>Shaharlar</b>		
Farg'ona	9 042,5	104,3
Qo'qon	8 970,8	93,4
Quvasoy	2 545,8	102,1
Marg'ilon	8 954,0	106,2
<b>Tumanlar</b>		
Oltiariq	2 278,4	98,9
Qo'shtepa	1 795,6	101,7
Bag'dod	1 644,2	100,6
Buvayda	2 725,4	105,1
Beshariq	2 348,0	105,0
Quva	2 821,2	101,9
Uchko'prik	5 030,4	109,4
Rishton	1 975,7	101,8
So'x	1 924,6	98,6
Toshloq	1 480,1	103,7
O'zbekiston	1 342,7	107,9
Farg'ona	1 806,8	102,9
Dang'ara	1 981,1	107,1
Furqat	1 797,3	99,2
Yozyovon	2 232,6	99,0

2023- yilning yanvar-avgust holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **3 740,3** ming. so'mni (2022- yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan **104,6** %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Farg'ona (9 042,5 mingso'm) Qo'qon(8 970,8 ming so'm), va Marg'ilon (8 954,0 ming so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keldi.

Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-avgust oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 259,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **106,6 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **751,3** mlrd. so'mni (**132,3 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **507,7** mlrd so'mni tashkil etdi (**92,5 %**).

## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)




## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati, foizda



**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

## UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
<b>Farg'na viloyati</b>	<b>1 259,0</b>	<b>106,6</b>	<b>751,3</b>	<b>132,3</b>	<b>507,7</b>	<b>92,5</b>
<b>Shaharlar</b>						
Farg'ona	140,8	121,5	132,7	133,1	8,1	50,1
Qo'qon	139,2	99,0	76,7	93,6	62,5	106,6
Quvasoy	31,3	89,1	10,7	83,0	20,6	92,6
Marg'ilon	147,4	107,9	92,3	110,4	55,2	104,1
<b>Tumanlar</b>						
Oltiariq	32,2	58,1	14,4	51,6	17,8	64,7
Qo'shtepa	62,3	172,1	38,3	220,5	24,0	127,3
Bag'dod	43,5	67,2	21,4	64,6	22,1	69,8
Buvayda	165,5	224,5	119,8	414,9	45,7	101,9
Beshariq	146,9	132,9	79,6	160,7	67,3	110,4
Quva	92,2	146,6	64,6	249,4	27,6	74,7
Uchko'prik	37,7	103,6	8,4	91,2	29,3	107,9
Rishton	68,1	89,5	30,3	146,1	37,7	68,2
So'x	20,0	59,9	12,4	149,0	7,6	30,2
Toshloq	27,5	165,5	9,2	141,1	18,3	181,2
<b>O'zbekiston</b>	<b>25,4</b>	<b>54,4</b>	<b>12,8</b>	<b>42,0</b>	<b>12,6</b>	<b>77,9</b>
Farg'ona	24,4	39,4	14,2	32,6	10,2	55,6
Dang'ara	6,2	30,6	1,5	11,5	4,6	67,4
Furqat	1,5	26,8	1,5	26,8	-	-
Yozyovon	46,8	89,4	10,5	65,4	36,3	99,9

\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **751,3** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**278,7** mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		Mrd. so'm
	<b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b>	<b>278,7</b>
	<b>Non va non mahsulotlari</b>	<b>52,0</b>
	<b>Don mahsulotlari</b> (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	<b>123,6</b>
	<b>Tovuq go'shti</b>	<b>42,1</b>
	<b>Qurilgan qishloq xojaligi mahsulotlari</b> (yongoq, bodom, pista va boshqalar)	<b>56,1</b>
	<b>Sut va sut mahsulotlari</b> (sir, brinza,...)	<b>16,1</b>
	<b>Tuxum</b>	<b>42,9</b>
	<b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak</b>	<b>19,3</b>
	<b>Ziravorlar</b>	<b>22,9</b>
	<b>Tuzlamalar</b>	<b>12,6</b>
	<b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b> (manzarali va qishloq xo'jaligi)	<b>11,8</b>
	<b>Nooziq-ovqat tovarlari</b>	<b>73,2</b>

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **507,7** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **404,5** mlrd.so‘m, qo‘y va echkilar – **93,5** mlrd. so‘mni, otlar – **6,0** mlrd. so‘mni, parrandalar – **3,7** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mrld. so‘m
	2 yoshdan kata bo‘lgan qoramollar	225,6
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	96,8
	1 yoshgacah bo‘lgan yosh mollar	82,1
	Qo‘ylar	91,0
	Otlar	6,0
	Echkilar	2,6
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	1,2
	Tovuqlar	1,9
	Quyونlar	0,2
	Qushlar	0,3

## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023- yil 1- sentabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni **1 963** tani tashkil etib, 2022- yil 1 – sentabr holatiga nisbatan 601 taga kamaygan va **76,6 % ni** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **3** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **1 960** tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar-avgust oylarida umumiy ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **364,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **8,1 %** ga ko'paydi. Bunda savdo aylanmasining **92,6 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda
<b>Farg'na viloyati</b>	<b>364,6</b>	<b>108,1</b>	<b>26,9</b>	<b>179,0</b>	<b>337,8</b>	<b>104,8</b>
<b>Shaharlar</b>						
Farg'ona	131,3	111,9	26,9	179,0	104,4	102,0
Qo'qon	51,1	110,7	-	-	51,1	110,7
Quvasoy	17,0	105,3	-	-	17,0	105,3
Marg'ilon	48,0	108,3	-	-	48,0	108,3
<b>Tumanlar</b>						
Oltiariq	7,8	102,2	-	-	7,8	102,2
Qo'shtepa	4,9	103,3	-	-	4,9	103,3
Bag'dod	3,7	102,4	-	-	3,7	102,4
Buvayda	5,7	102,6	-	-	5,7	102,6
Beshariq	10,6	105,8	-	-	10,6	105,8
Quva	14,9	105,5	-	-	14,9	105,5
Uchko'prik	9,6	110,6	-	-	9,6	110,6
Rishton	16,1	101,9	-	-	16,1	101,9
So'x	4,7	101,1	-	-	4,7	101,1
Toshloq	12,0	100,1	-	-	12,0	100,1
<b>O'zbekiston</b>	<b>4,5</b>	<b>102,0</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>4,5</b>	<b>102,0</b>
Farg'ona	8,8	102,5	-	-	8,8	102,5
Dang'ara	7,4	104,6	-	-	7,4	104,6
Furqat	2,6	100,9	-	-	2,6	100,9
Yozyovon	4,1	102,2	-	-	4,1	102,2

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- sentabr holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish) **2 580,6** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tkan yilning mos davriga nisbatan **10,6 %** ga ko'paydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **1 268,8** mlrd. so'm (o'sish sur'ati- **164,4 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – **1 311,8** mlrd. so'mni o'tkan yilning mos davriga nisbatan **2,5 barobar** ga ko'paydi.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'ish sur'ati, foizda



## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi




### Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrg. so'm	O'sish sur'ati, foizda
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>2 580,6</b>	<b>110,6</b>
<b>Shaharlar</b>		
Farg'ona	906,8	98,9
Qo'qon	1176,3	123,1
Quvasoy	6,1	105,1
Marg'ilon	178,2	157,4
<b>Tumanlar</b>		
Oltiariq	3,6	103,0
Qo'shtepa	4,8	103,8
Bag'dod	9,4	102,6
Buvayda	12,6	105,6
Beshariq	1,2	106,0
Quva	3,4	102,9
Uchko'prik	17,9	106,0
Rishton	3,0	102,5
So'x	4,6	264,7
Toshloq	19,2	105,4
O'zbekiston	5,5	104,0
Farg'ona	4,6	104,8
Dang'ara	88,8	104,8
Furqat	36,7	105,7
Yozyovon	97,8	70,0


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Qo'qon (**1 176,3** mlrd. so'm), Farg'ona (**906,8** mlrd. so'm) va Marg'ilon (**178,2** mlrd. so'm) shahar lari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar-avgust oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **9 944,6** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **9,7 %** ga o‘ydi.



## Savdo aylanmasi ulushi



**Yirik korxonalar**



**Mikrofirma va kichik korxonalar**


Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **9 392,8** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **107,4%** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **94,5 %** ni tashkil qildi.

## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga eng yirik korxonalar Bag'dad tumani (**11,3 b.**), Yozyovon (**1,8 b.**) va Dang'ara (**1,7 b.**) tumanlarida kuzatildi.

2023- yil 1- senabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 4563 tani tashkil etib, 2022- yil 1- sentabr holatiga nisbatan 287 taga kamaygan, o'sish sur'ati 94,1 % tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 21 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 4542 tani tashkil qildi.

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar , mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Mikrofirm a va kichik korxonal ar, mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda
Farg'na viloyati	<b>9 944,6</b>	<b>109,7</b>	<b>551,8</b>	<b>175,4</b>	<b>9 392,8</b>	<b>107,4</b>
Shaharlar						
Farg'ona	2079,9	113,8	308,0	148,0	1772,0	109,4
Qo'qon	1841,5	115,5	55,4	140,9	1786,1	114,9
Quvasoy	300,2	114,7	-	-	300,2	114,7
Marg'ilon	1741,1	112,7	137,5	100,0	1603,6	103,8
Tumanlar						
Oltiariq	301,8	106,0	46,2	73,6	255,5	115,2
Qo'shtepa	130,2	105,0	-	-	130,2	105,0
Bag'dod	114,1	116,3	0,6	1 1,3 b	113,5	115,7
Buvayda	189,2	101,5	-	-	189,2	101,5
Beshariq	236,1	103,3	-	-	236,1	103,3
Quva	91,3	100,7	-	-	91,3	100,7
Uchko'prik	550,8	105,9	0,6	122,6	550,2	105,9
Rishton	36,3	104,4	0,9	99,0	35,3	104,6
So'x	15,5	97,8	0,5	99,4	15,0	97,7
Toshloq	1390,2	105,9	-	-	1390,2	105,9
O'zbekiston	168,7	101,7	0,5	1,6 b	168,3	101,6
Farg'ona	279,6	100,5	0,4	28,8	279,3	100,8
Dang'ara	272,3	95,4	0,5	1,7 b	271,8	95,4
Furqat	106,0	90,4	-	-	106,0	90,4
Yozyovon	99,8	106,6	0,6	1,8 b	99,2	106,3



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi boshqarmasi  
Tel. 71-202-80-44 (45)**